XIX–XX ASRLARDA RUS BADIIY MAKTABLARINING SHAKLLANISHI VA USLUBIY TARAQQIYOTI

Zarifova Dilfuza Omon qizi
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti doktaranti
Orcid: 0009-0001-4521-7364

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XIX–XX asrlarda rus badiiy maktablarining taraqqiyot bosqichlari hamda ularning rangtasvir amaliyotiga olib kirgan uslubiy yangiliklari ko‘rib chiqiladi. Olib borilayotgan tadqiqotda akademik ta’lim an’analarining takomillashuvi, naturadan ishlashni o‘rganish metodlari, chizmatasvir hamda rangtasvirning o‘zaro aloqasi, kompozitsion tushunchaning shakllanishi va realistic yo‘nalishning rivojlanish xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Shu bilan bir qatorda XX asr boshlarida an’anaviy akademik tayyorgarlikning yangi badiiy oqimlar bilan aloqasi haqida yoritiladi va ushbu tadqiqotda badiiy maktablarning asosiy metodik tamoyillari talqin etiladi.*

Kalit so‘zlar: *rus san’ati, badiiy maktab, akademik ta’lim, realizm, rangtasvir, chizmatasvir, kompozitsiya, etyud, naturadan ishlash, kolorit, “Передвижников”, badiiy metod, uslub.*

Аннотация. *В статье рассматриваются основные этапы становления и развития русских художественных школ в XIX–XX веках, а также стилистические изменения, оказавшие влияние на практику живописи данного периода. Особое внимание уделяется эволюции академической системы художественного образования, методам работы с натурой, взаимодействию рисунка и живописи, формированию композиционного мышления и особенностям развития реалистического направления. Наряду с этим рассматривается взаимосвязь традиционной академической подготовки с новыми художественными течениями, получившими распространение в начале XX века. В исследовании раскрываются основные методические принципы художественного образования и их значение в формировании профессионального мастерства художника.*

Ключевые слова: *русское искусство, художественная школа, академическое образование, реализм, живопись, рисунок, композиция, этюд, работа с натуры, колорит, «Передвижники», художественный метод, стиль.*

Abstract. *The article examines the principal stages in the formation and development of Russian art schools during the 19th and 20th centuries, with particular attention to the stylistic innovations that influenced the practice of painting during this period. The study focuses on the evolution of academic art education, methods of working from nature, the relationship between drawing and painting, the development of compositional thinking, and the specific features of the realist tradition. It also explores the interaction between established academic training and the new artistic movements that emerged in the early 20th century. Particular emphasis is placed on interpreting the fundamental methodological principles of art education and their role in shaping the professional skills and artistic thinking of painters.*

Keywords: *Russian art, art school, academic education, realism, painting, drawing, composition, study painting, working from life, colouristic approach, Peredvizhniki, artistic method, style.*

Barchamizga ma’lumki, XIX–XX asrlar rus tasviriy san’ati tarixida badiiy maktabning rivojlanishi professional ta’lim, ijodiy izlanish va estetik qarashlarning o‘zgarishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur davrda rassom tayyorlash tizimi faqat texnik ko‘nikmalarni shakllantirish bilan emas balki, kuzatuvchanlik, tasavvur, kompozitsion fikrlash va badiiy obraz yaratish qobiliyatlarini ham rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Badiiy ta’lim jarayonida chizmatasvir, rangtasvir, kompozitsiya, plastik anatomiya fanlari bir-birini to‘ldiruvchi fanlar sifatida qaraldi. Natijada rassomning professional tayyorgarligi yagona tizimga birlashtiriladi. Bu tizimning amaliy ahamiyati shundaki, talaba shaklni tashqi ko‘rinish sifatida emas, balki uning tuzilishi, hajmi, fazodagi holati va yorug‘lik bilan munosabati orqali idrok etishga o‘rgatildi. Natura rassom uchun tayyor tasvir emas, balki ijodiy fikrni shakllantiruvchi manba vazifasini bajaradi.

Mazkur tizimning asosiy xususiyatlaridan biri murakkab tasviriy vazifalarga bosqichma-bosqich o‘tish hisoblanadi. Dastlab sodda shakllar va ularning nisbatlari o‘rganilib, keyinchalik inson figurasi, portret, murakkab naturmort hamda ko‘p figurali kompozitsiyalarga murojaat qilindi. Bu orqali talaba predmetning faqat tashqi konturini emas, balki uning konstruktiv tuzilishini, hajmini va fazodagi o‘rnini anglashga odatlandi. Shuningdek, akademik ta’limda nazariy bilimning amaliy mashg‘ulot bilan bog‘lanishi alohida ahamiyat kasb etdi. Kompozitsiya qonuniyatlari, proporsiya, perspektiva, yorug‘lik va soya kabi nazariy tushunchalar bevosita amaliy topshiriqlar orqali o‘zlashtirildi.

XIX asrning ikkinchi yarmida rus rangtasvirida hayot hodisalariga bo‘lgan qiziqish yanada kuchaydi. Rassomlar akademik mavzular doirasidan tashqariga chiqib, kundalik turmush, xalq hayoti, mehnat, tarixiy voqealar va inson xarakterini tasvirlashga ko‘proq murojaat qildilar. Bu jarayonda “Peredvizhniklar” harakatining faoliyati muhim o‘rin egalladi. 1870-yilda tashkil etilgan “Ko‘chma badiiy ko‘rgazmalar shirkati” san’at asarlarini turli shaharlarda namoyish etish orqali rangtasvirni kengroq ijtimoiy muhitga olib chiqishga intildi.

“Ko‘chma badiiy ko‘rgazmalar shirkati” ijodida hayotiy kuzatuv asosida obraz yaratish, insonning ijtimoiy va ruhiy holatiga e’tibor berish, tabiat hamda kundalik hayotni badiiy tadqiq qilish kabi xususiyatlar kuchaydi. Shu bilan birga, bu harakat vakillarini akademik an’analardan butunlay uzilgan hodisa sifatida baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi aksincha, ularning ko‘pchiligi akademik ta’limdan o‘tgan bo‘lib chizmatasvir, kompozitsiya hamda rangtasvirning professional asoslarini egallagan. Bunda yangilik, avvalo, mavjud kasbiy vositalardan foydalanish maqsadi va mavzuning o‘zgarishida namoyon bo‘ladi.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, rus realist maktabining uslubiy qiyofasini bir nechta o‘zaro bog‘liq jihatlar orqali ko‘rsatish mumkin.

Avvalo, naturani bevosita kuzatish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, rassomlar real muhitni o‘rganish orqali obrazning ishonarliligiga erishishga harakat qilgan. Etyud esa ushbu kuzatuvlarni qayd etishning oddiy vositasi emas, balki rang, yorug‘lik, fazo va kayfiyatni tadqiq qilish maydoniga aylangan.

Ikkinchi jihati inson obrazining individuallashtirilishi bo‘lib, portret va mavzuli kompozitsiyalarda qahramonning tashqi qiyofasi bilan bir qatorda uning xarakterini ochib berishga intilish kuchaytirilgan.

Uchinchi xususiyat esa hayotiy mavzular doirasining kengayishi hisoblanadi. Oddiy inson, uning mehnati, turmushi, tabiat bilan munosabati va tarixiy voqealardagi ishtiroki rangtasvir uchun muhim badiiy materialga aylantirilgan.

To‘rtinchi jihat kompozitsion yaxlitlik. Ko‘p figurali asarda har bir obraz mustaqil

element bo‘lib qolmasdan, umumiy mazmuniy va plastik tizimning bir qismiga aylanadi. Figuralarning qarashlari, harakatlari, tana holatlari, rang va yorug‘lik munosabatlari tomoshabin nigohini kompozitsion markazga yo‘naltiradi.

Beshinchi xususiyat shundan iboratki, unda rangning muhit bilan aloqador holda talqin qilinishi maqsad qilib olingan. Predmetning rangi alohida holda emas, balki yorug‘lik, atrof-muhit va fazoviy sharoit ta’sirida o‘zgaruvchi hodisa sifatida ko‘riladi. Bu besh xususiyatlarni rus rangtasvir ustalari ijodida muhokama qiladigan bo‘lsak, I. Repin, V. Surikov va I. Shishkin ijodiy tajribasi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Masalan, Ilya Repin ijodida professional akademik tayyorgarlik bilan hayotiy kuzatuvning uyg‘unligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ko‘p figurali kompozitsiyalarida rassom har bir qahramonning individual holatini umumiy voqea rivoji bilan bog‘lab tasvirlagan. Shu sababli uning asarlarida kompozitsiyaga nafaqat shakllarning joylashuvi, balki obrazlar o‘rtasidagi ichki munosabatlar tizimi sifatida qaraladi.



Ilya Yefimovich Repin.
“Grafinya Natalya Petrovna Golovina portreti” (1896)



Ilya Yefimovich Repin.
***“Slavyan bastakorlari”* (1871)**

Yana bir usta rassom Vasiliy Surikov tarixiy mavzuni rangtasvirda talqin qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirgan rassomlar biri hisoblanadi. Uning kompozitsiyalarida ommaviy sahna, tarixiy muhit, harakat va dramatik vaziyat bir-birini to‘ldiradi. Surikov tarixiy voqeani faqat qayta tiklashga emas, balki uning insoniy va ruhiy mazmunini ochishga intilgan desak hato bo‘lmaydi.



Vasiliy Ivanovich Surikov
“Qor shaharchasining egallanishi”
(1891)



Vasiliy Ivanovich Surikov
“Streltsilar qatlining tongi”
(1881)

Asarlari bilan ko‘pchilikni lol qoldira olgan rassom Ivan Shishkin ijodida esa tabiatni kuzatish va uning plastik tuzilishini anglash alohida o‘rin tutadi. Daraxtlar, o‘rmon, yer va osmon munosabatlari orqali peyzajning konstruktiv hamda rangtasvirning o‘ziga hos tuzilishi ochib beriladi. Ularning asarlari bugungi kunda ham yosh rassomlarning rangtasvir sirlarini o‘rganishlari uchun asosiy poydevor vazifasini o‘tab kelmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.



Ivan Shishkin
“Emanzor” (1887)



Ivan Shishkin “Qarag‘ayzor o‘rmonidagi tong” (1889)

XX asr boshlariga kelib esa rus san’atida uslubiy jarayonlar biroz murakkablashib boradi. Realistik an’analar davom etishi bilan birga impressionizm, simvolizm, modernizm va boshqa yangi badiiy qarashlar ham shakllanadi. Bu davr rassomlari akademik tayyorgarlikda olingan professional bilimlarini yangi tasviriy imkoniyatlar bilan birlashtira boshlaydilar. Rangning mustaqil ifoda vositasi sifatidagi mavqei kuchayadi, yorug‘likning o‘zgaruvchanligi, rang dog‘lari munosabati va rassomlarning individual ko‘rish tajribasiga e’tibor ortadi. Masalan, Valentin Serov, Konstantin Korovin, Mixail Vrubel kabi ijodkorlarning asarlarida professional akademik tayyorgarlik bilan individual badiiy izlanishlarning turlicha uyg‘unlashuvini ko‘rish mumkin.



Valentin Serov “Ochiq deraza. Sirenlar” (1886)



Konstantin KOROVIN “Parij” (1912)



Mixail VRUBEL “Siren” (1900)

Demak, XIX asrda shakllangan professional maktab XX asr boshlaridagi uslubiy rang-baranglik uchun muhim zamin yaratgan deb bemalol ayta olamiz.

Izlanishlar natijasida ma’lum bo‘ladiki, badiiy maktabning nazariy tamoyillarini rassomlik amaliyotidan ajratib bo‘lmaydi. Rassom uchun “natura” tushunchasi faqat tasvirlanadigan obyekt emas balki, u shakl, rang, yorug‘lik, fazo va harakatni o‘rganish vositasidir. Masalan, peyzaj etyudini bajarishda rassom butun manzarani bir xil darajada batafsil tasvirlashga intilmaydi. Aksincha, u avvalo umumiy rang munosabatini, asosiy yorug‘lik manbasini, yirik shakllarni va kompozitsion markazni belgilaydi. Keyinchalik esa shu kuzatuvlar kattaroq kompozitsion asarda qayta talqin qilinadi. Shuning uchun etyudni yakuniy asarning kichik nusxasi sifatida emas, balki ijodiy tajriba va kuzatuvlar maydoni sifatida tushunish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv kompozitsion fikrlashni rivojlantiradi: rassom naturadagi mavjud holatni shunchaki ko‘chirmaydi, balki undan o‘z g‘oyasiga mos elementlarni tanlaydi.

Shunday ekan, rus badiiy maktabi tajribasining zamonaviy badiiy ta’lim uchun ahamiyatli jihatlaridan biri nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishdir. Masalan, rang kontrasti haqida nazariy ma’lumot berishning o‘zi yetarli bo‘lmaydi balki, yosh rassom ushbu qonuniyatni turli etyudlarda sinab ko‘rishi, iliq va sovuq ranglar munosabatini kuzatishi, keyinchalik esa uni kompozitsion vazifada qo‘llashi kerak bo‘ladi.

Shuningdek, perspektiva, proporsiya, ritm va kompozitsion markaz kabi tushunchalar qoralama va eskizlar orqali amaliy jihatdan o‘zlashtirilganda chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur jarayon yosh rassomning nafaqat texnik mahoratini, balki mustaqil badiiy qaror qabul qila olish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Xulosa. XIX–XX asrlardagi rus badiiy maktablarining taraqqiyoti akademik ta’lim, realistik tafakkur va yangi badiiy izlanishlarning ketma-ket hamda o‘zaro ta’sirda rivojlanganligini ko‘rsatadi. Akademik tizim rassomga chizmatasvir, rangtasvir, kompozitsiya va plastik anatomiyaning professional asoslarini egallash imkonini bergan bo‘lsa, XIX asrning ikkinchi yarmidagi realist yo‘nalish ushbu bilimlarni real hayot, inson xarakteri va ijtimoiy muhitni tasvirlashga yo‘naltirgan.

“Peredvizhniklar” ya’ni “Ko‘chma badiiy ko‘rgazmalar shirkati” harakati esa rangtasvir mavzularining kengayishiga, oddiy inson hayoti va kundalik voqelikning san’atda faol aks etishiga xizmat qilgan. Shu bilan birga, ularning ijodiy faoliyatida akademik tayyorgarlikdan olingan professional vositalar ham saqlanib qolgan. XX asr boshlarida ushbu professional baza

yangi rangtasvir san’atidagi izlanishlar bilan boyidi. Natijada rang, yorug‘lik, shakl va individual badiiy talqinning imkoniyatlari kengaydi.

Rassom nuqtayi nazaridan qaraganda, ushbu maktabning eng muhim metodik sabog‘i bu naturani chuqur kuzatish bilan cheklanibgina qolmasdan, balki, kuzatilgan hodisani tanlash, tahlil qilish, umumlashtirish va mustaqil badiiy obrazga aylantirishdan iboratdir. Shu sababli XIX–XX asrlar rus badiiy maktablarining tajribasi tarixiy hodisa sifatidagi ahamiyatidan tashqari, bugungi rangtasvir ta’limi, kompozitsiya metodikasi va rassomning ijodiy shakllanishi uchun ham muhim nazariy-amaliy manba bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D.O.Zarifova XX ASR YEVROPA BADIIY MAKTABLARI VA ULARNING MARKAZIY OSIYO SAN’ATIGA TA’SIRI. ORIENTAL ART AND CULTURE, 7(02), 2026. 53-62.
2. Бенуа, А. Н. История русской живописи в XIX веке. - Москва.
3. Сарабьянов, Д. В. История русского искусства конца XIX начала XX века. - Москва.
4. Федоров-Давыдов, А. А. Русское искусство промышленного капитализма. - Москва.
5. Рогинская, Ф. С. Товарищество передвижных художественных выставок. - Москва.
6. Му Кэ. К вопросу становления и развития русской реалистической школы живописи // Вопросы теории и практики. 2017.
7. Культура.РФ. «Картина эпохи»: XIX век в русской живописи [Электронный ресурс]. - Режим доступа: Культура.РФ.
8. Третьяковская галерея. Лаврус. «7 стереотипов о передвижниках» [Электронный ресурс]. - Режим доступа: Третьяковская галерея. Лаврус.
9. Zarifova, D. (2023). TEACHING TECHNOLOGY OF THE TOPIC OF PORTRAIT OF THE HUMAN HEAD IN PAINTING. Modern Science and Research, 2(10), 391-393.
10. Zarifova Dilfuza Omon qizi. (2025). O'ZBEKISTON DASTGOHLI RANGTASVIRI RIVOJI: XX ASR YEVROPA BADIIY MAKTABLARI TASIRI KONTEKSTIDA. https://doi.org/10.5281/zenodo.17612703
11. Курбанова, Д. А. (2016). РОЛЬ И МЕСТО МУЗЕЕВ УЗБЕКИСТАНА И РОССИИ В УСТАНОВЛЕНИИ КУЛЬТУРНЫХ ВЗАИМОСВЯЗЕЙ. Paradigmata poznání, 75.
12. Sevara Shavkatovna Alyaminova. (2026). PLAYGROUND CLASSIFICATION: FROM TYPOLOGY TO FUNCTIONAL TYPES [Dataset]. Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.19366852
13. Sevara Alyaminova. THE ORIGINS AND HISTORICAL DEVELOPMENT OF GAMES AND TOYS. (2026). *Journal of Culture and Art*, *4*(1), 17-22. https://imfaktor.com/index.php/jocaa/article/view/2055
14. Аляминова Севара Шавкатовна. (2026, May 1). ПРОЕКТИРОВАНИЕ ИГРОВЫХ ПЛОЩАДОК: ОТ ДИЗАЙН-КОНЦЕПЦИИ К ТЕХНОЛОГИЧНОМУ ПРОИЗВОДСТВУ. https://doi.org/10.5281/zenodo.19939728